

“METAHIKOYALAR ORALAB” DAGI FIKRLARGA BIR NAZAR

Hamroyeva Sadoqat Nurali qizi

ToshDO'TAU Ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti, 4-kurs

sadoqathamrayeva070@gmail.com +99888677577

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11102593>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoir Faxriyor ijodidagi “Metahikoyalar oralab” kitobidagi maqolalar, shoir ishtirokidagi suhbatlar, suhbatlarda berilgan adabiyot muammolari va ularning yechimlari haqida xulosalar beriladi. Faxriyorning ham tarjimonlik hamda publitsistik qarashlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Faxriyor, “Metahikoyalar oralab”, tadqiqot va tahlil.

A LOOK AT THE THOUGHTS ON "THROUGH METASTORIES"

Abstract. This article summarizes the articles in the book "Metahikoya Oralab" written by the poet Fakhriyor, the interviews with the poet, the literary problems presented in the interviews and their solutions. Fakhriyor's views on translation and journalism are also discussed.

Keywords: Fakhriyor, "Through Metastories", research and analysis.

Faxriyorning maqolalar, esse va tarjimalardan iborat bo'lgan “Metahikoyalar oralab” kitobiga nazar tashlaydigan bo'lsak, undagi asosiy masalalar adabiyot va til oldidagi muammolar, adabiyotshunoslar va adabiyotga ixlosmandlarning javobini kutib yotgan savollarga munosib javoblar berilgan kitob deya olamiz. [1]. Ushbu kitobdan o'rin olgan “Ham adib, ham munaqqid, ham tarjimon” maqolasida yozuvchi, tanqidchi, telejurnalist Ahmad A'zamning tanqidchilik va adabiyotga olib kirgan yangicha nafasi va bir qancha nasriy asarlarida davr muammolarini olib chiqqanligi e'tirof etiladi. Faxriyor aytganidek, yangi avlod sa'y-harakatlari bilan endi sovet davridagi xorij yozuvchilarining asarlarini ruscha orqali o'zbekchalashtirish amaliyotdan asliyatdan tarjima qilishga o'tila boshlandi. Ayniqsa, Ahmad A'zam tarjimasida Alber Kamyuning “Begona” asari o'zbek kitobxonini qo'lga yetib kelgani ham quvonarli ekanini aytib o'tadi.

“Adabiy jarayon miqyosi” nomli maqoladagi fikrlar bir tilda yozilgan asarning o'sha til yoxud o'sha millat vakillarining milliy ruhi bo'lishi shart degan g'oyani inkor qiladi. Ta'kidlanishicha, bugungi globallashtirilgan zamonda adabiy tafakkur faqat bitta makonga, an'anaga yoki milliy ruhga bog'lanib qololmasligi, qolaversa, adabiyotni makon, jug'rofiy hudud yoki biror mamlakatga bo'lib tasniflash, aslida, shartli ekanligi, chunki har qanday yaxshi asar jahon adabiyotining ilg'or an'analari o'ziga singdirgan bo'lishi kerakligi aytib o'tilgan. Shu o'rinda hozirgi kunda Londonda yashab o'zbek va rus tillarida ijod qilayotgan Hamid Ismoil

haqida fikrlar keltirilib, ijodkorning asarlari rus tilida yozilgan bo'lsa-da unda o'zbekcha ruh ustuvorligida yuqoridagi fikrlar isbotini topgani ko'rinadi. "Adabiy muhitni Moskvaga ham, Parijga ham bog'lab bergan emas. Qayerda ijod gullab-yashnasa, qayerda yangilik yaratilsa, u o'sha yerda mavjud bo'ladi", – deydi shoir Faxriyor maqola so'ngida.

Bugungi kundagi eng dolzarb muammolar qalamga olingan deya ta'kidlaganimiz "Metahikoyalar oralab" to'plamida har bir o'z tili uchun kurashayotgan insonning befarq o'tib ketishiga yo'l qo'ymaydigan "Qachongacha arosatda yuramiz?" nomli maqola, darhaqiqat, ona tilimiz uning yo'qolib ketmasligi uchun o'z alifbomizni qachongacha yot so'zlar yot harflar bilan boyitib yurishimiz tanqid ostiga olinadi. So'nggi bir necha yil ichida oshkoralik va so'z erkinligiga yo'l ochib berilganidan so'ng alifbo muammosi ham tilga olinib boshlandi. Ammo ayrim adabiyotshunos olimlarning "lotin alifbosi tilimiz tabiatiga unchalik muvofiq emas", degan fikrlari tarqaldi. Shoir Faxriyorning aytishicha, lotin alifbosining bugungi ahvoli uchun alifbo emas, o'zbek tilida mavjud tovushlarni ifoda qilish uchun mos harflarni tanlay olmagan tilshunos olimlar aybdor. Shu yerda ayb kimda ekanligi asosiy muammo emas ya'ni eng to'g'ri vaqt va eng qulay muhit vujudga kelgan sharoitda hammasiga ko'z yumgan holda aniq va qat'iy qaror qabul qilish lozim. Chunki til masalasida har bir inson har xil talaffuz imkoniyatiga ega, shuning uchun yakdil qaror tez fursatda lotin alifbosining yangi variantiga o'tishdir.

"She'riyat iqlimlarida" nomli intervyuga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda she'r, poetik so'z, she'rdagi tuyg'u va fikr uyg'unligi, Asqad Muxtorning she'rlari haqida fikrlar, she'rda shaklning ahamiyati, hozirgi kunda qofiyaning ham yangilanganligi, she'rdagi bashorat haqida, she'r yozayotganda qandaydir qonuniyatlarga amal qilish kerakmi degan savollarga Faxriyorning teran fikrlari keltirilgan. Fikrlarga alohida to'xtalsak, poetik so'z tushunchasi nisbiy bo'lib, shoir istalgan bir so'zni poetik so'zga aylantira olishi uning o'ziga bog'liq hodisa ekanligini ko'ramiz. Faxriyor aytganidek, "poetik bo'lmagan har qanday so'zni tovlantirib bera olish, avvalo, shoirning iqtidoriga bo'liq". Aynan Asqad Muxtor yaratgan "gulning arxitekturasi" degan iboradagi arxitektura so'zini bemalol poetiklashgan so'z deya olamiz. Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, poetik so'z yaratish asnosida har qanday baynalmilal so'zni ishlatish ham o'quvchining g'ashiga tegishi mumkin. Shu sababli poetik mahorat va malaka asosida yaratilgan poetik so'z ma'naviy ozuqa vazifasini bajaradi.

Fikr va tuyg'u uyg'unligi haqida Faxriyor shunday deydi: "To'g'ri she'rda fikr va tuyg'u uyg'un – mutanosib bo'lishi kerak. Ammo bugungi uyg'unlik mezonlari kechagidan farqli bo'lsa, bu shoirning aybi emas-ku. Menimcha she'rdan faqat tuyg'u, samimiyat talab qilish ham to'g'ri emas". Fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytib o'tish kerakki, bir tuyg'uning boshqa bir fikr

orqali yuzaga chiqishi bu she'ning bahosini belgilab beradi. Asqad Muxtor o'zbek she'riyatiga yangicha fikrlash tarzini, kechinmalarni ifoda etishning hali she'rxon o'rganmagan, ko'nikmagan usulini olib kirgani ham bu ikki tushunchani birlashtiruvchi uyg'unlashtiruvchi bo'lib xizmat qilgani ham mazkur suhbatda aytib o'tiladi.

She'rda shakl masalasi azaldan mumtoz adabiyotimizning eng gullab-yashnagan davrlarida ham muhokama ostida bo'lgan mavzulardan biridir. Shoir Faxriyor bilan suhbatda esa bu masalaga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Uning fikrlariga ko'ra, shakl o'z-o'zidan yuzaga keladi, ijodkor o'zining individual xususiyatlaridan, faqatgina o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlardan uzoqqa keta olmaydi. "Shakl tanlashning sizning istagingizga bog'liq bo'lmagan jihati ham bor. Aslida, she'ning u yoki bu shaklni olishiga ijodkor yuragidan kelayotgan impuls – turtki beruvchi ichki quvvat kuchi, harakat miqdori asos bo'ladi. She'r yozilayotganda shoir uni ichida talaffuz qilib ko'radi. Nafasingiz qanchaga yetsa, shunga munosib shakl tanlaysiz, ohangingiz ham shuncha chegara oladi. Odamning ruhiy va jismoniy "men"i ijodida aks etadi. Shoirning yurak urishi qanday bo'lsa, fikrlash tarzi ham shunday. Ba'zan o'zingizni majburlab, boshqacha yozishingiz ham mumkin. Lekin shu holatda ham o'zingizdan uzoq ketolmaysiz. Bu yerda hali to'la kashf etilmagan, ilg'ab olinishi qiyin bo'lgan bir qonuniyat yashirin", – deydi shoir Faxriyor.

She'rdagi ommaviy qofiyalash, faqat qofiyani moslashtirish, asosiy masala – o'quvchining talabini qondirishdan uzoqlashishga olib kelmoqda. Faxriyor aytganidek, an'anaviy qofiyalash epidemiyasi ko'pgina she'rlarning umriga zomin bo'lmoqda. "Endi "non"ga "jon"ni qofiyalash she'rxonni zeriktirib qo'yyapti". Shu sababli qofiyani isloh qilish hali hamon o'z yechimini kutayotgan masalalardandir. Aynan Faxriyor ijodida qofiyalashning yangi usulini uchratishim mumkin. "Men sevgan edim kuygin va dalli, Azoblarning temir iskanjasida, Yurakda ming bitta jarohat, yallig', Vido, ayriliqning tag'in qanchasi", Bundagi dalli va yallig', iskanjasida va qanchasi qofiya vazifasini o'tovchi so'zlardir.

Bashorat tushunchasi she'riyat umuman adabiyotda mavjud tushunchadir. Unda inson o'zi istagan narsalarni qog'ozga tushirishi mumkin. Shu orqali bu bashorat sifatida keyinchalik amalga oshishi mumkin. Faxriyor ham buni aynan ko'ngil ishi bo'lgan she'rni bashorat sifatida ham tushunish mumkinligini ta'kidlaydi. Ya'ni she'r ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalardan xavotirlanish fonida yuz berishi mumkin.

Faxriyor bilan suhbat davomida "Shoir she'r yozayotganda amal qilishi kerak bo'lgan qonuniyatlar bormi" degan savolga quyidagi javob bergan. "Ijod qilayotganingizda ko'p narsani siz aytayotgan qonuniyatga amal qilishdan ko'ra orttirilgan tajriba va malaka hal etadi. Chunki muayyan tajriba orttirilgandan so'ng o'sha qonuniyatlarga amal qilish avtomatlashadi, ya'ni

sezilmay ketib botiniy ongga ko‘chib o‘tadi. Binobarin, ko‘p narsa botiniy ongga bog‘liq. Men she‘rlarimning ko‘pgina qusurlarini tahrir qilish jarayonida emas, ularni boshqa tilga tarjima qilish uchun taglama qilayotganda sezganman. Chunki satrlardagi mantiqiy uzilishlarni ba‘zan ohang va ba‘zan qofiya bog‘lab ketishi ham mumkin ekan. Aksaran o‘sha uzilishlarni boshqa tilda qofiya bilan bog‘lab ketishning iloji bo‘lmaydi. Bu tuyg‘u va ehtirolarning ko‘pam fikrga bo‘ysunavermasligi bilan bog‘liq bo‘lsa ajab emas. Yana bir tomoni, mantiq she‘r uchun nisbiy tushunchadir” deydi shoir.[2]. Shu asosda xulosamiz she‘r yaratilishida ham qofiya ham qonuniyatlar ham poetik so‘zning yangiligi va albatta, malaka va tajriba muhimdir.

REFERENCES

1. Фахриёр. “Метаҳикоялар оралаб”. Мақолалар. Эсселар. Интервьюлар. Таржималар. Тошкент. “Академнашр”. 2020 – 288 б.
2. Норматов Умарали. “Ижод сеҳри”. Т.: “ШАРҚ”, 2007 – 352 б.